



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 29 895 tani tashkil etdi, ulardan 24 559 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Shuningdek, ushbu davrga 50 630 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 106,3 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda.




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 439 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 3 012 ta, oilaviy korxonalar 198 ta, xususiy korxonalar 59 tani tashkil etgan.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	829	10,6 %	Izboskan t.	175	12,0 %
Andijon t.	356	15,4 %	Xo‘jaobod t.	166	11,3 %
Asaka t.	267	10,4 %	Paxtaobod t.	154	11,8 %
Shahrixon t.	207	9,5 %	Bo‘ston t.	148	15,1 %
Baliqchi t.	202	12,4 %	Jalaquduq t.	117	8,7 %
Marhamat t.	197	13,5 %	Buloqboshi t.	110	11,7 %
Oltinko‘l t.	189	12,2 %	Ulug‘nor t.	103	13,3 %
Qo‘rg‘ontepa t.	186	12,3 %	Xonobod sh.	33	6,0 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 95,8 foizni tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,8 foiz, sanoat – 18,5 foiz, qurilish – 7,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,1 foiz, hududiy kesimda eng ko'p Andijon shahrida – 26,2 foiz, Asaka – 8,6 foiz, Andijon – 7,7 foiz, Shahrixon – 7,3 foiz va Baliqchi – 5,4 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	7 842	Izboskan t.	1 460
Asaka t.	2 579	Marhamat t.	1 459
Andijon t.	2 311	Jalaquduq t.	1 348
Shahrixon t.	2 178	Paxtaobod t.	1 308
Baliqchi t.	1 628	Bo'ston t.	982
Oltinko'l t.	1 549	Buloqboshi t.	940
Qo'rg'ontepa t.	1 516	Ulug'nor t.	773
Xo'jaobod t.	1 468	Xonobod sh.	554

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 275 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 272 ta;
- yirik korxonalar 3 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	765	11,4 %	Izboskan t.	167	14,1 %
Andijon t.	341	17,1 %	Xo'jaobod t.	162	13,1 %
Asaka t.	256	11,9 %	Paxtaobod t.	147	14,1 %
Shahrixon t.	198	11,2 %	Bo'ston t.	145	18,1 %
Marhamat t.	195	15,9 %	Jalaquduq t.	109	10,3 %
Baliqchi t.	188	14,3 %	Buloqboshi t.	104	14,4 %
Oltinko'l t.	187	15,0 %	Ulug'nor t.	101	16,4 %
Qo'rg'ontepa t.	181	15,3 %	Xonobod sh.	29	6,4 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- oktabr holatiga 24 689 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 93,5 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,3 foiz, sanoat – 22,4 foiz, qurilish – 8,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,0 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,6 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlari – 10,4 foiz.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	6 691	Qo'rg'on t.	1 186
Asaka t.	2 146	Izboskan t.	1 181
Andijon t.	1 999	Jalaquduq t.	1 059
Shahrixon t.	1 769	Paxtaobod t.	1 040
Baliqchi t.	1 315	Bo'ston t.	799
Oltinko'l t.	1 249	Buloqboshi t.	722
Xo'jaobod t.	1 239	Ulug'nor t.	616
Marhamat t.	1 225	Xonobod sh.	453

2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 199 tadan 127 taga (o'sish 28 taga), tashish va saqlashda – 129 tadan 155 taga (o'sish 26 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	764	11,5 %	Izboskan t.	167	14,2 %
Andijon t.	341	17,1 %	Xo'jaobod t.	162	13,1 %
Asaka t.	256	12,0 %	Paxtaobod t.	147	14,2 %
Shahrixon t.	198	11,2 %	Bo'ston t.	144	18,1 %
Marhamat t.	195	16,0 %	Jalaquduq t.	109	10,4 %
Oltinko'l t.	187	15,0 %	Buloqboshi t.	104	14,4 %
Baliqchi t.	187	14,3 %	Ulug'nor t.	101	16,5 %
Qo'rg'ontepa t.	181	15,3 %	Xonobod sh.	29	6,5 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlarining ulushi Andijon shahrida (27,0 foiz), Asaka (8,7 foiz), Andijon (8,1 foiz), Shahrixon (7,2 foiz) va Baliqchi (5,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	6 635	Izboskan t.	1 180
Asaka t.	2 136	Qo'rg'ontepa t.	1 180
Andijon t.	1 989	Jalaquduq t.	1 053
Shahrixon t.	1 766	Paxtaobod t.	1 037
Baliqchi t.	1 311	Bo'ston t.	796
Oltinko'l t.	1 244	Buloqboshi t.	722
Xo'jaobod t.	1 232	Ulug'nor t.	611
Marhamat t.	1 219	Xonobod sh.	448

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar
2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Asaka t.	210
Andijon t.	162
Bo‘ston t.	139
Marhamat t.	136
Baliqchi t.	135
Paxtaobod t.	127
Qo‘rg‘ontepa t.	127
Shahrixon t.	118
Ulug‘nor t.	115
Jalaquduq t.	105
Andijon sh.	104
Izboskan t.	102
Xo‘jaobod t.	99
Oltinko‘l t.	79
Buloqboshi t.	48
Xonobod sh.	18



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 470
Andijon t.	619
Asaka t.	509
Shahrixon t.	423
Xo'jaobod t.	409
Baliqchi t.	251
Oltinko'l t.	250
Qo'rg'on t.	241
Jalaquduq t.	235
Marhamat t.	229
Izboskan t.	202
Buloq boshi t.	197
Paxtaobod t.	182
Bo'ston t.	130
Ulug'nor t.	100
Xonobod sh.	97



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 18,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,0 foizni), 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (60,8 foizni), 2,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (81,8 foizni) hamda 0,5 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (83,3 foizni) tashki etgan.



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	766
Asaka t.	190
Shahrixon t.	156
Andijon t.	146
Oltinko'l t.	116
Izboskan t.	98
Bo'ston t.	96
Marhamat t.	84
Xo'jaobod t.	84
Qo'rg'ontepa t.	72
Baliqchi t.	71
Paxtaobod t.	61
Buloqboshi t.	61
Ulug'nor t.	46
Xonobod sh.	42
Jalaquduq t.	41



Viloyatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 57,5 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,7 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,4 foizni tashkil etdi.

305


Fuqarolik
obyektlarini qurish

654

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 171


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	2 113
Asaka t.	752
Shahrixon t.	695
Andijon t.	675
Baliqchi t.	591
Oltinko'l t.	564
Izboskan t.	533
Jalaquduq t.	500
Qo'rg'on t.	496
Paxtaobod t.	459
Xo'jaobod t.	439
Marhamat t.	432
Bo'ston t.	312
Buloqbo'shi t.	241
Ulug'nor t.	238
Xonobod sh.	170



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 192 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 69,8 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,9 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,4 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 6,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 63,8 foizni tashkil etdi.

611

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 750

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 849

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	426
Andijon t.	109
Asaka t.	83
Shahrixon t.	78
Qo'rg'ontepa t.	60
Oltinko'l t.	57
Ulug'nor t.	55
Marhamat t.	46
Xo'jaobod t.	46
Paxtaobod t.	45
Xonobod sh.	44
Jalaquduq t.	44
Buloqboshi t.	41
Baliqchi t.	40
Izboskan t.	39
Bo'ston t.	22



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2019- yilning mos davriga nisbatan 81,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,5 foiz ulushini tashkil etdi.

68

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 167


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Andijon sh.	153
Marhamat t.	38
Baliqchi t.	35
Andijon t.	26
Xo'jaobod t.	24
Buloqboshi t.	23
Shahrixon t.	21
Qo'rg'ontepa t.	16
Ulug'nor t.	15
Asaka t.	14
Paxtaobod t.	14
Oltinko'l t.	13
Izboskan t.	11
Jalaquduq t.	10
Xonobod sh.	6
Bo'ston t.	5



2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,4 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 49,3 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 37,3 foizini tashkil etdi.



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	336
Asaka t.	83
Shahrixon t.	79
Andijon t.	60
Baliqchi t.	54
Izboskan t.	52
Marhamat t.	48
Oltinko'l t.	46
Paxtaobod t.	43
Qo'rg'ontepa t.	38
Xo'jaobod t.	38
Buloqboshi t.	36
Jalaquduq t.	35
Xonobod sh.	14
Ulug'nor t.	9
Bo'ston t.	7



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 883 ta yoki 91,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 86,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 133,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,7 foizni tashkil etdi.

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

24




943

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	339
Asaka t.	91
Andijon t.	65
Shahrixon t.	63
Marhamat t.	51
Paxtaobod t.	44
Xo'jaobod t.	42
Baliqchi t.	39
Qo'rg'ontepa t.	38
Izboskan t.	35
Bo'ston t.	34
Oltinko'l t.	33
Buloqboshi t.	27
Jalaquduq t.	22
Ulug'nor t.	15
Xonobod sh.	9



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 75,5 foiz ulushini tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishidagi korxonalar soni 22,4 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,0 foizni;
- havo transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	724	12,5 %	Xo'jaobod t.	153	14,1 %
Andijon t.	288	17,7 %	Qo'rg'ontepa t.	147	16,3 %
Asaka t.	224	14,6 %	Paxtaobod t.	145	15,3 %
Marhamat t.	191	17,9 %	Bo'ston t.	109	20,1 %
Baliqchi t.	182	16,9 %	Jalaquduq t.	108	12,0 %
Shahrixon t.	181	12,4 %	Ulug'nor t.	100	18,6 %
Oltinko'l t.	175	17,0 %	Buloqboshi t.	97	15,9 %
Izboskan t.	160	15,5 %	Xonobod sh.	28	7,5 %

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga amaldagi 24 689 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 20 540 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	5 808	Izboskan t.	1 030
Andijon t.	1 630	Paxtaobod t.	946
Asaka t.	1 538	Qo'rg'ontepa t.	901
Shahrixon t.	1 458	Jalaquduq t.	898
Xo'jaobod t.	1 087	Buloqboshi t.	610
Baliqchi t.	1 080	Bo'ston t.	542
Marhamat t.	1 067	Ulug'nor t.	538
Oltinko'l t.	1 032	Xonobod sh.	375

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan:

Andijon shahrida – 548 ta, Asaka – 393 ta, Baliqchi – 189 ta va Shahrixon tumanlarida – 154 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 1 001 ta, sanoat – 436 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 172 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 158 ta.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	548	Jalaquduq t.	127
Asaka t.	393	Marhamat t.	127
Baliqchi t.	189	Izboskan t.	77
Shahrixon t.	154	Bo'ston t.	66
Andijon t.	138	Buloqboshi t.	65
Xo'jaobod t.	134	Paxtaobod t.	60
Oltinko'l t.	131	Xonobod sh.	46
Qo'rg'ontepa t.	128	Ulug'nor t.	45

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 635 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 112 tadan 419 taga (o'sish 307 taga), sanoatda – 346 tadan 593 taga (o'sish 247 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 108 tadan 152 taga (o'sish 44 taga) sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	250	Buloqboshi t.	37
Andijon t.	217	Baliqchi t.	34
Asaka t.	192	Ulug'nor t.	27
Bo'ston t.	180	Xonobod sh.	26
Shahrixon t.	143	Jalaquduq t.	22
Qo'rg'ontepa t.	137	Paxtaobod t.	22
Oltinko'l t.	77	Marhamat t.	20
Izboskan t.	62	Xo'jaobod t.	11

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

2023- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘rinish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,1 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 80 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu, viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 21,1 foiz), Turkiya (ulushi 15,6 foiz), Qirg‘iz Respublikasi (ulushi 14,6 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

Hududlar kesimida

Andijon sh.	120	Xonobod sh.	13
Andijon t.	24	Marhamat t.	13
Oltinko‘l t.	18	Xo‘jaobod t.	10
Asaka t.	18	Bo‘ston t.	7
Shahrixon t.	17	Qo‘rg‘ontepa t.	6
Buloqboshi t.	17	Baliqchi t.	6
Izboskan t.	15	Paxtaobod t.	6
Jalaquduq t.	14	Ulug‘nor t.	4

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari – bu, ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 154 tasi qo'shma korxonalar, 154 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

71	Andijon sh.	49
11	Oltinko'l t.	7
10	Izboskan t.	5
9	Andijon t.	15
9	Buloqboshi t.	8
9	Jalaquduq t.	5
7	Asaka t.	11
5	Shahrixon t.	12
5	Xonobod sh.	8
4	Marhamat t.	9
3	Xo'jaobod t.	7
3	Qo'rg'ontepa t.	3
2	Bo'ston t.	5
2	Baliqchi t.	4
2	Paxtaobod t.	4
2	Ulug'nor t.	2

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tuzilishidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- iyundagi PF-5739-son hamda 2022- yil 20- aprel PF-113 Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 21- avgustdagi 704-son qarori bilan:

- tijorat korxonalarini hisobiga 9 oy davomida pul mablag'lari tushmaganligi yuzasidan banklar davlat soliq organlarini tizim orqali xabardor qilishi;

- shundan so'ng, davlat soliq organlari taqdimnomasiga asosan Davlat xizmatlari markazlari korxonani harakatsiz holatga o'tkazishi va bu haqida davlat reyestriga hamda Tizimga tegishli yozuv kiritiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish boʻlimi
Tel.: 74 228-29-74**